

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b.

B.Sh. Primkulov

2025



60111800 – Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari
uchun mutaxassislik fanlaridan

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI
DASTURI

Bilim sohasi: *100 000 – Ta'lim*
Ta'lim sohasi: *110 000 – Ta'lim*
Ta'lim yo'nalishi: *60111800 – Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili*

Denov -2025

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 22-maydagi 160-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida NIZOM" ga asosan ishlab chiqildi.

Mazkur dasturda bitiruvchilari uchun mutaxassislik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi bo'yicha ko'rsatmalar berilgan bo'lib, bundan 60111800 - Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchi talabalari foydalanishi mumkin.

Tuzuvchilar:

M.A.Xidirova

-DTPI, Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasida katta o'qituvchisi

D.D.Tog'aymurodov

- DTPI, Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasida o'qituvchisi

I.Q.Choriyeva

- DTPI, Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasida o'qituvchisi

I.A.Soatov

- DTPI, Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasida o'qituvchisi

B.E.Tog'ayev

- DTPI, Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchilar:

G.S.Nasrullayeva

- DTPI, Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasida dotsenti

V.A.Tangriyev

- DTPI, Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrasida mudiri

Mazkur dastur Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasining 2025 yil 19 - 04 dagi 9 -sonli yig'ilishda ko'rib chiqilgan va ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri

D.D.Tog'aymurodov

Mazkur dastur Filologiya fakulteti kengashining 2025 yil 23 04 dagi 29 -sonli yig'ilishda ko'rib chiqilgan va tasdiqlash uchun o'quv-uslubiy kengashga taqdim etilgan.

Fakultet dekani

M.N.Musurmankulova

Mazkur dastur Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashining 2025 yil 23 04 dagi 9 -sonli majlisida tasdiqlangan.

O'UB boshlig'i:

B.Sh.Primqulov

KIRISH

Mazkur Davlat attestatsiyasi dasturi oliy o'quv yurtlarining 60111800- Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashirish chora tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-1875-sonli qarori, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustda 418-son buyrug'i ijrosini ta'minlash hamda zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish va chet tillarni o'qitish borasida xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda mazkur dasturda ingliz tilini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'qitish nazarda tutilgan.

Mazkur Davlat attestatsiyasi dasturining maqsad va vazifalari, bakalavriyat bosqichida talabalar o'rgangan tildan talabalarning bilimni baholashda Bilim va malakalarni baholash agentligining "Chet tilini bilish darajasini aniqlash test sinovlari" hamda "Umumyevropa kompetensiyalari" (CEFR) tizimini jahon standartiga tenglashtirish maqsadida 4-kurs talabalarda C1 darajaga moslab ishlab chiqilgan yakuniy davlat attestatsiyasi savollarini baholash tartibini o'z ichiga oladi.

I. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVLARI TARKIBI

Ushbu yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi dasturi orqali bitiruvchi talabalarning ixtisoslik va chet tili bo'yicha o'zlashtirgan bilimlar til ko'nikmalarining barcha turlari asosida baholanadi. Mazkur attestatsiya imtihoni asosida bitiruvchi talabalarning 4 ta til ko'nikmalari hamda tilning nazariy aspektlarini o'z ichiga oladi. Yakuniy attestatsiya sinovi 4 bo'limdan iborat:

Tinglab tushunish ko'nikmasi: topshiriq og'zaki matnni tinglab tushunishga yo'naltiriladi. Tinglab tushunish qismi 2 ta matn, 9 ta savoldan iborat. (Til ko'nikmalari integratsiyasi fani asosida).

O'qish ko'nikmasi: O'qish ko'nikmasi va strategiyalarini tekshirishga mo'ljallangan turli matnlar, ular bo'yicha tuzilgan umumiy 10 ta savoldan iborat. Ushbu qism 40 daqiqaga mo'ljallangan (O'qish va yozish amaliyoti fani asosida)

Yozish ko'nikmasi: topshiriq yozma muloqotni tekshirishga yo'naltiriladi va 1 soatga mo'ljallangan. Mazkur topshiriqda talabalardan 2 ta yozma ish yozish talab qilinadi. Birinchi topshiriq 150 ta so'zdan tashkil topgan 1 ta rasmiy xat yozish, ikkinchi topshiriq esa 250 ta so'zdan iborat bo'lgan insho yozish so'raladi (O'qish va yozish amaliyoti fani asosida).

Gapirish ko'nikmasi: Gapirish ko'nikmasini baholash ikki qismdan iborat bo'lgan talaba bilan belgilangan mavzu yuzasidan tashkil etilgan og'zaki topshiriqdan iborat.

Kasbiga, kelgusi rejalariga oid umumiy muloqot. Ushbu qismdabitiruvchilar o'z kasblariga oid har qanday suhbatni olib bora olishlarini namoyish etadilar.

Muayyan mavzu asosida maqsadli bahs-munozara va savol- javob. Topshiriqning bu qismida bitiruvchi talabalar turli mavzular doirasida bahs yuritish, qiyoslash, taqqoslash, afzallik va kamchiliklar, muammo echimini yoritib olish, fikrni dalil bilan isbotlay olish kabi gapirish ko'nikmalarni ko'rsatadilar. Test topshiruvchilarning og'zaki nutqi har bir bitiruvchi talaba uchun individual tashkillashtirilib, har bir talabaga baholovchi o'qituvchilar tomonidan 15 daqiqa vaqt ajratiladi. (Til ko'nikmalari integratsiyasi fani asosida.)

II. HAR BIR TIL KO'NIKMASI BO'YICHA TEST-SINOVLARI TAVSIFI

Ixtisoslik fanlaridan nazariy test sinovlarining maqsadi bitiruvchi talabaning o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur nazariy bilimlarni qay darajada egallaganligini aniqlashdan iborat (nazariy fonetika, nazariy grammatika, leksikologiya, stilistika, o'rganilayotgan til tarixi fanlari asosida).

1. Tinglab tushunish ko'nikmasining maqsadi:

- Tinglab tushunish ko'nikmasi bo'yicha Bilim va malakalarni baholash agentligining "Chet tilini bilish darajasini aniqlash test sinovlari" hamda "Umumyevropa kompetensiyalari" (CEFR) C1 gacha bo'lgan darajada test topshiruvchining og'zaki matnni tinglab tushuna olishini tekshirish:

- o'z sohasi va sohasidan tashqari bo'lgan abstrakt va aniq mavzulardagi og'zaki nutqni notanish aksentda so'zlanganda ham tushuna olishi, ma'lumotlarni farqlay olishi va aniqlik kirita olishi; turli janrdagi, rasmiy va og'zaki nutqni, idiomatik iboralarni ajrata olishi va tushuna olishi;

- kengaytirilgan hajmdagi nutqni gapiruvchilar va ular o'rtasidagi munosabat faqat nazarda tutilgan, ya'ni ochiq ishora etilmagan bo'lsa ham tushuna olishi;

- murakkab, notanish mavzular muhokamasini va munozara mazmunini

- osonlik bilan tushuna olishi;

- ko'pgina ma'ruzalar, bahs va munozaralarni tushuna olishi;

- noaniq, eshitish qiyin bo'lgan, masalan, poezd stansiyalari, stadion kabi joylardagi e'lonlarni tushuna olishi;

- murakkab texnik ko'rsatmalar, mahsulotlar va xizmatlar ta'rifini tushuna

- olishi;

- diskka yozib olingan audio yozuvlarni tushuna olishi va so'zlovchilar o'rtasidagi muammo, munosabatlarni aniqlay olishi;

- kontekstdan kelib chiqib, grammatik va leksik bilimlarga tayangan holda so'zlashuvchilarning maqsadlarini va keyingi aytilishi mumkin bo'lgan masalalarni taxmin qila olishi talab etiladi.

2. O'qish ko'nikmasi bo'limining maqsadi:

- ko'nikmasi bo'yicha Bilim va malakalarni baholash agentligining "Chet tilini bilish darajasini aniqlash test sinovlari" hamda "Umumyevropa kompetensiyalari" (CEFR) C1 gacha bo'lgan darajada test topshiruvchining yozma matnini tushuna olishini tekshirish;

- abstrakt va murakkab mavzulardagi suhbat ma'nosini tushuna olishi;
- ijtimoiy sohada va sayohat davomida turli murakkablik darajasidagi jurnal va gazeta maqolalarini tushuna olishi;

- ish joyida yozma ko'rsatmalarga amal qila olishi hamda murakkab tushunchalardan va terminlardan holi bo'lgan, o'z kundalik sohalariga oid matn va hisobotlarni o'qib tushuna olishi;

- turli idiomatik va og'zaki nutq iboralarini audio matnda eshitib tushuna olishitalab etiladi.

Talabalardan test davomida quyidagi o'qish ko'nikmalari va strategiyalarni qo'llash talab etiladi:

- matnning umumiy ma'nosini tushunish uchun o'qish
- matndagi muayyan detallarni topish uchun o'qish;
- matndagi asosiy ma'nolar va ularni yorituvchi dalillarni topish uchun o'qish;
- berilayotgan taklif yoki ma'noni anglash uchun o'qish;
- berilgan ma'lum bir so'zning ma'nosini aniqlash uchun o'qish.

Turli diskurs bilan ishlash maqsadida berilgan matnlar, jumladan tasvirlash, hikoya qilish, solishtirish, tahlil etishga asoslangan matnlar original manbalardan, autentik holatda ishlatiladi.

3. Yozish ko'nikmasi bo'limi maqsadi:

- Yozish ko'nikmasi bo'yicha Bilim va malakalarni baholash agentligining "Chet tilini bilish darajasini aniqlash test sinovlari" hamda "Umumyevropa kompetensiyalari" (CEFR) C1 gacha bo'lgan darajada test topshiruvchining matn turlarini yoza olish ko'nikmasini tekshirish;

- ijtimoiy sohada va sayohat davomida turli murakkablik darajasidagi shaxsiy va qisman shaxsiy xatlarni, jumladan gazeta tahririyatiga xat kabilarni yoza olishi; turli maqsadga yo'naltirilgan xat turlarini jumladan, ariza, shikoyat xati, iltimosnoma, ilova xatlar kabilarni yoza olishi;

- ish joylarida kundalik hayotga doir oldi-sotdi va xizmatlar bilan bog'liq yozishuvlarni bajara olishi.

- alohida diplomatik va nozik vaziyatlarni talab etuvchi iltimosnomalarni yozishda qo'shimcha yordam yoki resurslardan foydalangan holda yoza olishi;

- juda murakkab va abstrakt mavzularda diktant, xat va yozishmalarni yoza olishi;

- ta'limda ma'ruzalardan konspekt tayyorlay olishi, turli akademik yozma topshiriqlarni yoza olishi va turli manbalardan ma'lumotlarni jamlagan holda grammatik, leksik va uslubiy xatolarga deyarli yo'l qo'yilmagan insho yoza olishi.

4. Yozish ko'nikmasi bitta topshiriqdan iborat:

- Mavzuga moslik va fikrlarning aniqligi: Test sinovlarida talaba o'z fikrini aniq va izchil bayon qila olishi kerak. Ushbu darajada mavzu bo'yicha chuqur tahliliy fikrlash va mavzuga yondashish talab qilinadi.

- Fikrlarni tizimli bayon qilish: Matnni yozishda aniq kirish, asosiy qism va xulosaga ega bo'lish lozim. Fikrlar ketma-ketligi mantiqiy bo'lishi, alohida g'oyalar bir-biriga izchil bog'lanishi lozim.

- Ko'plik va xilma-xil gap tuzilmalaridan foydalanish: C1 darajasida yozuv ko'nikmasi grammatik jihatdan boy va xilma-xil bo'lishi kerak. Oddiy gaplardan tashqari, qo'shma va qaratqich gaplardan keng foydalanish talab etiladi.

- Mantiqiy bog'lovchilar va sinonimlardan foydalanish: Murakkab bog'lovchilarni (e.g., 'although', 'furthermore', 'on the other hand') qo'llash va sinonimlar orqali nutqni boyitish hamda gaplarni takrorlamaslik kerak.

- Keng va boy so'z boyligini namoyish qilish: Talabalar faqat oddiy lug'at bilan cheklanib qolmasdan, murakkab va turli kontekstlarda qo'llaniladigan so'zlarni to'g'ri ishlata olishlari kerak.

- Murakkab mavzularda fikr bildirish: Ijtimoiy, madaniy va akademik mavzularda fikr bayon qilishda terminologiya va kasbiy atamalarni to'g'ri ishlata bilish kerak.

- Yozma uslub va ohangni kontekstdan kelib chiqib moslashtirish: Masalan, rasmiy yozishmalarda rasmiy uslub, norasmiy yozuvlarda esa mos ohangni saqlab qolish muhimdir.

- Nutq madaniyati va stilistik normalarni bilish: Stilistik jihatdan matn tushunarli, mantiqiy va yuqori saviyali bo'lishi kerak.

- Grammatika va imlo jihatdan xatolarning kam bo'lishi: C1 darajasi talabalari grammatika va imlo bo'yicha deyarli xatosiz yozishi talab etiladi. Xato qilish mumkin, ammo bu xatolar matnning umumiy ma'nosini yoki oqimini buzmasligi kerak.

- Ijodiy fikrlash va yangi g'oyalarni ilgari surish: Yozuvda ijodiy va original fikrlarni ifodalash muhimdir. O'quvchilar kutilmagan nuqtai nazarlarni keltirishi yoki mavzuga yangicha yondashuvni ko'rsatishi kerak.

5. Gapirish ko'nikmasi (intervyu) bo'limining maqsadi:

- Gapirish ko'nikmasi bo'yicha test topshiruvchining Bilim va malakalarni baholash agentligining "Chet tilini bilish darajasini aniqlash test sinovlari" hamda "Umumiyevropa kompetensiyalari" (CEFR) C1 darajasigacha muloqot qila olish ko'nikmasini tekshirish;

- Muloqot qilish qobiliyati: Talabanning turli mavzularda, chuqur va mazmunli fikrlarni ifodalash, argumentlarni mantiqiy tarzda taqdim etish va ularni himoya qilish qobiliyatini aniqlash.

- Tildan erkin foydalanish darajasi: Talabanning til birliklarini erkin va o'ylamasdan, tabiiy tarzda ishlatish qobiliyatini baholash. C1 darajasida talabalar tilni murakkab vaziyatlarda, shu jumladan kasbiy va akademik suhbatlarda qo'llashlari kerak.

- Til moslashuvchanligi: Turli uslublar va ro'yxatga mos ravishda tilni moslashtira olish qobiliyati. Talaba norasmiy, kasbiy va murakkab muloqot jarayonlarida tilni moslashtirish, talaffuz, leksika va grammatika vositalarini to'g'ri tanlashi lozim.

- Fikrni kengaytirish va mavzuni rivojlantirish qobiliyati: Muloqot davomida fikrlarni kengaytirish, misollar keltirish, dalillarni keltirish hamda mavzuni rivojlantirish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

- Madaniy va kontekstual sezgirlik: Talabanning turli madaniyatlararo muloqotlarda tilni to'g'ri va kontekstual ravishda qo'llay olishi baholanadi. Bu tilni mos madaniyat va kontekstga moslashtira olishni ham o'z ichiga oladi.

III. IXTISOSLIK FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVINI O'TKAZISH TARTIBI VA UNI BAHOLASH MEZONI

Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish uchun tuzilgan topshiriqlar Bilim va malakalarni baholash agentligining "Chet tilini bilish darajasini aniqlash test sinovlari" hamda "Umumyevropa kompetensiyalari" (CEFR) darajalari asosida ishlab chiqilgan baholash mezonlari bo'yicha baholanadi.

Umumiy 100 ball bo'lgan yakuniy topshiriqlar bo'limlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- tinglab tushunish ko'nikmasi - 18 ball
- o'qish - 20 ball
- yozuv ko'nikmasi - 32 ball (rasmiy xat uchun 14 ball, inso uchun 18 ball)
- gapirish ko'nikmasi - 30 ballni tashkil etadi.

Tinglab tushunish ko'nikmasi (listening skill) umumiy til bilish darajasini aniqlashning muhim qismidir va u talabanning og'zaki matnni qanday darajada tushunish va qayta ishlay olish qobiliyatini baholashga qaratilgan. CEFR (Umumyevropa kompetensiyalari) tizimi asosida tinglab tushunish ko'nikmasi turli darajalar bo'yicha baholanadi. Quyida baholashning asosiy jihatlari va ko'rsatkichlari bayon etilgan:

Tinglab tushunish ko'nikmasi bo'limidagi har bir to'g'ri javob 2 balldan umumiy 18 ball bilan baholanadi.

B2 (Yuqori mustaqil daraja)

Talabaning qobiliyati: Talaba murakkab mavzularda, shu jumladan texnik, kasbiy yoki ilmiy matnlarni tinglab, asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni farqlay oladi.

Baholash mezonlari: Talaba tezroq gapirilgan, murakkabroq strukturaga ega matnlarni tinglab tushunishi va asosiy fikrlarni ajrata bilishi kerak. Suhbatlar, ma'ruzalar, yangiliklar va boshqa tinglovchi faoliyatlari davomida ma'lumotni tahlil qila olishi lozim.

Ko'rsatkich: Texnik mavzular yoki kasbiy kontekstlarda bo'ladigan murakkab suhbatlarni eshitib tushunish.

C1 (Murakkab mustaqil daraja)

Talabaning qobiliyati: Talaba juda murakkab va chuqur tahlil talab qiladigan mavzularda suhbatlarni tinglab tushunishi kerak. Bu darajada talaffuzdagi nozik farqlarni tushuna olish qobiliyati baholanadi.

Baholash mezonlari: Talaba ilmiy, akademik yoki kasbiy suhbatlarni chuqur tushunishi va hatto qisqa vaqt ichida fikrni tahlil qilishi talab qilinadi.

Ko'rsatkich: Murakkab mavzulardagi radio, ma'ruza yoki kasbiy prezentatsiyalarni to'liq tushunib, ularni tahlil qila olish.

Baholash Usullari:

Tinglab tushunish matnlari: Radio, podcast, video, suhbat yoki qisqa og'zaki hikoyalar kabi matnlar asosida talabalar sinovdan o'tadi.

Asosiy elementlar:

- Eshitgan matnning umumiy mazmunini tushunish.
- Asosiy faktlar va qo'shimcha tafsilotlarni ajratib olish.
- Muallifning ohangi, maqsadi va asosiy fikrlarini tushunish.
- Murakkab leksik birliklarni va grammatik strukturalarni tushunish qobiliyati.

Tinglab tushunish ko'nikmasi baholanayotganda, talabaning o'zlashtirish darajasi, kontekstual tushunishi va detallarni eslab qolish qobiliyati ham inobatga olinadi. Har bir daraja uchun talab qilinadigan bilim va ko'nikmalar chuqur o'rganilib baholanadi.

O'qish ko'nikmasi CEFR doirasida uchun baholashda quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

B2 darajasi uchun o'qish ko'nikmasi baholash mezonlari:

Murakkab matnlarni tushunish: Talaba turli mavzularda yozilgan matnlarni tushuna olishi kerak. Bu matnlar informatsion va argumentativ bo'lishi mumkin (masalan, maqolalar, hisobotlar). Matnning umumiy mazmuni va asosiy fikrlarini tushunish muhimdir.

Maxsus matnlar: Talaba o'z sohasi bilan bog'liq murakkab matnlarni o'qib, ulardagi asosiy g'oyalarni va muhim tafsilotlarni aniqlashi mumkin bo'lishi kerak.

Baholash: Talabaning tushunishi va matnning asosiy qismlarini farqlash qobiliyati baholanadi. Talaba umumiy fikrni va matndagi nuqtai nazarni o'qish orqali oson aniqlashi kerak.

Jumla va tuzilishlar: O'qilgan matnning murakkab tuzilishi va grammatik jihatlari ham tushunilishi kerak.

Baholash mezonlari:

- Matnning asosiy fikrlarini tushunish (asosiy g'oya va detallarga e'tibor qaratish).

- Matnda keltirilgan nuqtai nazarlarni to'g'ri aniqlash.

- Texnik va akademik matnlarni tushunish darajasi.

- O'qilgan matnning asosiy qismlarini qisqacha ifodalay olish.

B2 darajasida talaba matnlarda asosiy g'oyalarni tushunishi, mavzuni umumiy tahlil qilishi va unda keltirilgan argumentlarni tahlil qila olishi kerak. Talaba o'zi tushungan matnni qisqacha sharhlashi va asosiy nuqtai nazarlarni ayta oladi.

C1 darajasi uchun o'qish ko'nikmasi baholash mezonlari:

Murakkab va uzun matnlarni tushunish: Talaba yuqori murakkablikdagi akademik va kasbiy matnlarni, shu jumladan maxsus soha bilan bog'liq matnlarni tushunishi lozim. Ushbu matnlar aniq va mantiqiy argumentlarga asoslangan bo'lishi mumkin.

Yashirin ma'nomlarni tushunish: C1 darajasida talaba matndagi yashirin ma'no, konnotatsiyalar va ohangni ham tushuna olishi kerak. U murakkab grammatik tuzilishlar va stilistik elementlarni anglay oladi.

Tahlil va sintez: C1 darajasida talaba o'qilgan matnni tahlil qilish, asosiy fikrlarni ajratib olish va matnni tahliliy tarzda sintez qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Baholash mezonlari:

- O'qilgan matnda yashirin ma'no va ohanglarni tushunish qobiliyati.

- Murakkab va akademik matnlarni tahlil qilish.

- Matnning murakkab grammatik tuzilishlarini anglash.

- Matnning asosiy mavzusi va nuqtai nazarini chuqur tushunish va tahlil qila olish.

C1 darajasida talaba har qanday mavzudagi murakkab matnlarni tushunishi, undagi asosiy g'oyalarni, yashirin ma'nomlarni anglay olishi va ushbu ma'lumotlarni mantiqiy tarzda tahlil qilishi kerak. C1 darajasi talabalaridan yuqori darajada tahliliy fikrlash va matnni sintez qilish qobiliyatlari talab qilinadi.

O'qish ko'nikmasi bo'limidagi har bir to'g'ri javob 2 balldan, umumiy 20 ball bilan baholanadi.

Yozuv ko'nikmasini baholash uchun Umumyevropa kompetensiyalari (CEFR) doirasida turli mezonlarga asoslanadi. Baholash quyidagi jihatlar bo'yicha amalga oshiriladi:

B2 darajasi (Yuqori mustaqil daraja) uchun baholash mezonlari:

Mazmun va g'oya ifodalash qobiliyati: Talaba o'z fikrini tushunarli, mantiqiy va izchil tarzda ifoda etishi kerak. Mavzuga mos fikrlarni keltirish, aniq dalillar va misollar bilan asoslash qobiliyati baholanadi.

Matnning tuzilishi va uyg'unligi: Yozma matnlar mantiqiy bo'limlarga bo'lingan, bir fikrdan ikkinchisiga o'tish izchil bo'lishi kerak. Soddadan murakkabgacha bo'lgan g'oyalarni aniq ifoda qilish talab etiladi.

Tilning aniqligi va leksik boyligi: Talaba turli mavzularda keng doiradagi leksikani ishlatish olishi kerak. Til ishlatishda ko'proq turli xil iboralar va sinonimlardan foydalanish, takrorlardan qochish baholanadi.

Grammatika: Asosiy grammatik qoidalarining to'g'ri qo'llanilishi, jumla tuzish, fe'l zamonlari va kelishiklarni noto'g'ri qo'llamaslik kuzatiladi.

O'z fikrini mustaqil ifoda qilish: Yozuvda o'z fikrini mustaqil ifoda etish, dalillar keltirib, shaxsiy nuqtai nazarini aniq tushuntira olish qobiliyati.

C1 darajasi (Murakkab mustaqil daraja) uchun baholash mezonlari:

Mazmunning chuqurligi va murakkabligi: Talaba murakkab mavzularda, keng qamrovli va mazmunli g'oyalarni ifoda eta olishi kerak. Dalillar keltirish, mavzuni chuqur tahlil qilish va bir nechta nuqtai nazardan yoritish talab etiladi.

Tilning boyligi va uslubning moslashuvchanligi: Yozma ishda turli uslubdagi leksika va murakkab iboralaridan foydalanish qobiliyati. Matnni o'qigan odamga ta'sir o'tkazish uchun nozik uslublarni qo'llash, kontekstga mos va stilistik mos keladigan so'z va ifodalar tanlash baholanadi.

Matn tuzilishi va mantiqiy oqim: C1 darajasida talabalar murakkab va uzoqroq matnlarni izchil va mantiqiy tarzda tashkil qila olishi kerak. Murakkab o'tishlar, ko'chirishlar va bog'lamalar yordamida matn bir butunlikda saqlanishi kerak.

Grammatika va tildan erkin foydalanish: Murakkab grammatika qoidalarini to'g'ri qo'llash, ko'plikni o'z ichiga olgan murakkab tuzilishli gaplardan foydalanish. Fikrlarni mantiqiy va izchil ifoda qilishda hech qanday grammatik xatoliklarga yo'l qo'ymaslik.

Ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyati: Talaba murakkab mavzularda ijodiy yondashishi va chuqur tahliliy fikrlashini ko'rsatishi kerak. Muammoni turli burchaklardan ko'rib chiqish va bir necha dalil asosida mavzuga yondashish talablari.

Mazkur topshiriqda talabalardan 2 ta yozma ish yozish talab qilinadi. Birinchi topshiriq 150 ta soʻzdan tashkil topgan 1 ta rasmiy xat yozish uchun 14 ball, ikkinchi topshiriq esa 250 ta soʻzdan iborat boʻlgan insho yozish uchun 18 balldan, umumiy 32 ball bilan baholanadi.

Gapirish koʻnikmasi uchun Umumyevropa kompetensiyalari (CEFR) doirasida quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

B2 darajasi uchun gapirish koʻnikmasini baholash mezonlari:

Oʻzini ifoda qilish qobiliyati: Talaba aniq va izchil tarzda oʻz fikrlarini bayon qila olishi kerak. Mazmunli muloqot qilish uchun tegishli soʻz boyligidan foydalanishi muhim.

Baholash mezonlari: Talaba qanday darajada fikrlarini aniqlik va loʻndalik bilan ifodalay oladi, gaplarning izchilligi, muloqotning mazmuni baholanadi.

Leksik va grammatik moslashuvchanlik: Talaba mos kontekstda tegishli soʻzlarni tanlashi, grammatik jihatdan toʻgʻri gapirishi kerak. Bu yerda grammatik xatolarning darajasi va ularning muloqotga taʼsiri muhim.

Baholash mezonlari: Talabaning grammatika va leksikadan foydalanishdagi moslashuvchanligi va aniqligi baholanadi. Grammatik xatolar juda koʻp boʻlmasligi va asosiy muloqotni tushunishga xalaqit bermasligi lozim.

Muloqotning davomiyligi: B2 darajadagi talaba muloqotni davom ettira olishi, uzoq vaqt davomida muammosiz muloqot qilish koʻnikmasiga ega boʻlishi kerak.

Baholash mezonlari: Suhbatdagi pauzalar soni, muloqotning toʻxtalmasdan davom etishi va talabaning oʻzini erkin ifodalay olish qobiliyati baholanadi.

Talqin va izoh berish qobiliyati: Talaba turli murakkab mavzularga izoh bera olishi va oʻz fikrlarini kengaytira olishi kerak.

Baholash mezonlari: Talabaning mavzuga izoh berish, fikrlarini dalillar bilan qoʻllab-quvvatlash va tushuntirish qobiliyati baholanadi.

C1 darajasi uchun gapirish koʻnikmasini baholash mezonlari:

Oʻzi ifoda etish va dalillar keltirish qobiliyati: C1 darajasidagi talaba juda murakkab mavzularda aniq, puxta va oʻylangan fikrlar bayon qila olishi lozim. Bu muloqotda qatnashgan kishilarga aniq dalillar va argumentlar keltirishi kerak.

Baholash mezonlari: Fikrlarning chuqurligi, dalillarning asoslanganligi va muloqotning izchil va aniq boʻlishi baholanadi.

Til moslashuvchanligi: Talaba turli tilda murakkab uslublarni, leksikani va grammatika qoidalarini mos ravishda qoʻllay olishi kerak. U noqulay mavzularda ham muloqot qilishni davom ettira olishi lozim.

Baholash mezonlari: Talaba qiyin vaziyatlarda ham tilni mos ravishda ishlata olish qobiliyatiga ega ekanligi, grammatik xatolarning minimal darajada boʻlishi baholanadi.

Talaffuz va intonatsiya: C1 darajasidagi talaba talaffuzi ravon, intonatsiyasi esa muloqot kontekstiga mos bo'lishi kerak.

Baholash mezonlari: Talaffuz aniq, tushunarli bo'lishi kerak. Intonatsiya va ovoz balandligining mosligi baholanadi.

Murakkab mavzularni kengaytirish qobiliyati: Talaba muloqot davomida fikrlarni kengaytirishi, mavzuni chuqur tahlil qilishi va misollar bilan boyitishi kerak.

Baholash mezonlari: Muloqotning izchilligi, mavzularni kengaytirish qobiliyati va turli dalillarni keltirish qobiliyati baholanadi.

Madaniy moslashuvchanlik: C1 darajadagi talaba madaniyatlararo muloqotda tilni mos ravishda qo'llay olishi kerak.

Baholash mezonlari: Madaniy kontekstda to'g'ri va mos bo'lgan leksika va ifodalardan foydalanish darajasi baholanadi.

B2 darajasi gapirish ko'nikmasi talabani mustaqil ravishda o'rta darajada murakkab mavzularda muloqot qila olishini baholasa, C1 darajasi talabani yuqori darajadagi murakkab, akademik yoki kasbiy suhbatlarni olib bora olish qobiliyatini tekshiradi.

Gapirish ko'nikmasi bo'limida akademik yoki kasbiy suhbatlarni olib bora olish qobiliyatini tekshirish natijasida umumiy 30 ball bilan baholanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi savollari uchun imtihonni tashkil etish uchun tavsiya qilinadigan Cambridge University Press tomonidan nashr etilgan "Complete IELTS" seriyasidagi kitoblarni talabarga tavsiya qilinadi.

1. Y.Mirjonov, J.Qutimov Multilevel master Mock tests: O'quv qo'llanma. Toshkent: "Factor books", 2023.-220 b.

2. Complete IELTS Bands 4-5 Student's Book with Answers. Kitobda o'qish, yozish, gapirish va tinglash bo'yicha mashqlar keltirilgan. Cambridge University Press - Complete IELTS 4-5

3. Complete IELTS Bands 5-6.5 Student's Book with Answers. CEFR darajasi: B2. O'rta darajadagi til biluvchilar uchun mo'ljallangan. Cambridge University Press - Complete IELTS 5-6.5

4. Complete IELTS Bands 6.5-7.5 Student's Book with Answers. CEFR darajasi: C1. Bu kitob yuqori darajadagi o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, C1 imtihoniga tayyorgarlik uchun barcha ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Cambridge University Press - Complete IELTS 6.5-7.

Eslatma: Yakuniy davlat attestatsiya jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi ballari e'lon qilingan kundan e'tiboran 24-soat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi va talaba o'rtasida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar maxsus

appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda DAK raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi

Eslatma: Talabalar va professor o'qituvchilarning talabiga ko'ra Yakuniy davlat attestatsiyasi savollari jamlanmasini olish uchun boshqa kitobdan ham foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Crystal, D. (2003). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Blackwell Publishing.
2. McCarthy, M., & O'Dell, F. (2017). English Vocabulary in Use Upper-Intermediate. Cambridge University Press.
3. Soars, L., & Soars, J. (2019). Headway Upper-Intermediate, 5th Edition. Oxford University Press.
4. Eales, F., & Oakes, S. (2016). Speakout Upper-Intermediate Student's Book, 2nd Edition. Pearson.
5. Tilbury, A., Hendra, L. A., Rea, D., & Clementson, T. (2013). English Unlimited B2 Upper Intermediate Coursebook. Cambridge University Press.
6. Brown, H. D. (2007). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson Education.
7. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
8. Scrivener, J. (2011). Learning Teaching: The Essential Guide to English Language Teaching. Macmillan.
9. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman.
10. Council of Europe. (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR). Cambridge University Press.
11. North, B., & Piccardo, E. (2016). The CEFR in Practice. Cambridge University Press.
12. Fulcher, G., & Davidson, F. (2007). Language Testing and Assessment: An Advanced Resource Book. Routledge.
13. Jackson, H., & Amvela, E. Z. (2000). Words, Meaning, and Vocabulary: An Introduction to Modern English Lexicology. Continuum.
14. Landau, S. I. (2001). Dictionaries: The Art and Craft of Lexicography. Cambridge University Press.
15. Carter, R., & McCarthy, M. (2006). Cambridge Grammar of English: A Comprehensive Guide. Cambridge University Press.
16. Eagleton, T. (2008). Literary Theory: An Introduction. Blackwell Publishing.

- 17.Culler, J. (1997). Literary Theory: A Very Short Introduction. Oxford University Press.
- 18.Barry, P. (2009). Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Theory. Manchester University Press.
- 19.Yusupov, M. (2005). Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
- 20.Safarov, Sh. (2006). O'zbek tilshunosligi asoslari. Fan nashriyoti.
- 21.Qosimov, R. (2012). O'zbek tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. Sharq.
- 22.Pishg'adamov, T. (2011). Oliy maktab pedagogikasi. Fan nashriyoti.
- 23.Ishmuhammedov, R., & Xoliqov, M. (2013). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
- 24.Axmedov, K. (2010). Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi nashriyoti.